

ILMIY-AMALIY JURNAL

Impact Factor: 5.394

ISSN 2181-0958

DOI 10.26739/2181-0958

YURISPRUDENSIYA

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ | JURISPRUDENCE



7 JILD, 1

2026

YURISPRUDENSIYA

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ

ТОМ 7, НОМЕР 1

JURISPRUDENCE

VOLUME 7, ISSUE 1



Bosh muharrir:
Главный редактор:
Chief Editor:

SALAEV NODIRBEK
O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi
professor, Yuridik fanlar doktori.

Bosh muharrir o'rinbosari:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

RUSTAMBEKOV ISLAMBEK
Toshkent davlat yuridik universiteti
Yuridik fanlar doktori, professor.

TAHRIRIY HAY'AT A'ZOLARI | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ |

Mas'ul kotib | Ответственный секретарь | Responsible secretary:

DAVRONOV ATOBEK
Toshkent davlat yuridik universiteti jinoyat-protsessual huquqi kafedrasida o'qituvchisi,
PhD yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori.

KARIMOV FARHOD
Siyosiy fanlar doktori, dotsent,
A. Avloniy nomidagi
Malaka oshirish instituti prorektori;

BAZAROVA DILDORA
Toshkent davlat yuridik universiteti

yuridik fanlar doktori, professor;

IMOMOV NURILLO
Toshkent davlat yuridik universiteti fuqarolik huquqi
kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori, professor;

KHAIRIEV NODIRJON
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
professori, yuridik fanlar doktori, dotsent;

NEMATOV JURABEK
Toshkent davlat yuridik universiteti
ma'muriy va moliyaviy huquq kafedrasida
dotsenti, yuridik fanlar doktori, dotsent;

ISMAILOV SHUKHRATJON
Toshkent davlat yuridik universiteti mehnat
huquqi kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori;

KHABIBULLAEV DAVLATJON
Toshkent davlat yuridik universiteti fuqarolik
protsessual va xo'jalik protsessual huquqi kafedrasida
mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor;

OCHILOV KHASAN
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent;

IBROKHIMOV JAMSHID
Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD);

GAFUROVA NOZIMAKHON
Toshkent davlat yuridik universiteti xalqaro
huquq va inson huquqlari kafedrasida mudiri,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

NARZIEV OTABEK
Toshkent davlat yuridik universiteti xususiy
xalqaro huquq kafedrasida i.o. professori,
yuridik fanlar doktori;

MUSAEV BEKZOD
Toshkent davlat yuridik universiteti
konstitutsiyaviy huquq kafedrasida mudiri, yuridik fanlar
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

MURATAEV SERIKBEK
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti,
yuridik fanlar nomzodi;

KAMALOVA DILDORA
Yuridik fanlar doktori, professor;

YUSUPOV SARDORBEK
Toshkent davlat yuridik universiteti ma'muriy va
moliyaviy huquq kafedrasida mudiri, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori (PhD), yuridik fanlar doktori, dotsent;

KHUJAEVA SHOKHJAKHON
Toshkent davlat yuridik universiteti
intellektual mulk huquqi kafedrasida mudiri,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD);

CHORIEVA DILBAR
dotsent, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Page Maker | Верстка | Sahifalovchi: Xurshid Mirzaxmedov

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Kiberjinoyatlarni huquqiy tartibga solish va intellektual mulk va mualliflik huquqini himoya qilishda prokuratura organlarining roli.....	5
Zaynabutdinov Said Axrorbek Ulug'bek o'g'li	
2. Haqiqatni aniqlash prinsipini takomillashtirish masalalari.....	20
Suyunboyev Ixom Oybek o'g'li	
3. Вояга етмаганлар пробацациясида давлат ва жамоат институтлари ҳамкорлиги.....	25
Абжалов Абдижаббор Махаммадиевич	
4. Dalillarning maqbulligini ta'minlashda tanib olish uchun ko'rsatish tergov harakatining ahamiyati.....	35
Ummatov Muhammadrasul Tursunovich	
5. Oilani mustahkamlash asoslari.....	43
Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna	
6. International legal aspects of the development of the trans-afghan transport corridor.....	49
Muhammadjonov Xojiakbar A'zamjon O'g'li, Firuza Khamdamova	
7. Терроризм билан боғлиқ жиноятларнинг юридик табиати.....	63
Нажмитдинов Нодирхон Амриллохонович	
8. Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ижросини таъминлаш этиш ва таъминлаш шакллари ва ўзига хос хусусиятлари.....	66
Якубов Мирзахид Турабаевич	
9. The Arbitration Agreement under Uzbek Law: Consent, Form, and the Limits of Party Autonomy.....	72
Nodirkhon Malikov	
10. Jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ijtimoiy va huquqiy normalarning o'rni.....	86
Abdullayeva Firuza Sharipovna	
11. O'zbekiston Respublikasida kompyuter texnologiyalari vositasida sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olishning huquqiy jihatlari.....	95
Ibroximova Malikaxon Alijon qizi Farruh Tashev Muzaffarovich	

OILANI MUSTAHKAMLASH ASOSLARI. <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20177974>

Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna

NamDU dotsenti.

Ochuboyeva @gmail.com. 99892178415

Annotatsiya: Maqolada jamiyat kichik yacheykasi hisoblangan oilaning mustahkamligiga bag'ishlangan. Oila mustahkamligi borasida Prezident fikrlari, oila jamiyat taraqqiyoti asosi ekanligi haqidagi iqtiboslari izohlangan.

Ushbu fikrlar muntazam oilani huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy qo'llab quvvatlashga qaratilgan tashabbuskorlik sifatida jamiyat a'zolari uchun muhim ekanligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: oila, Prezident, huquq, iqtisod, jamiyat, ma'naviyat, dastur, maqsad, ta'lim, tarbiya, baxt, farzand, maskan, qadriyat, vatan, milliylik, an'ana, ajdodlar merosi, kelajak

FUNDAMENTALS OF STRENGTHENING THE FAMILY.

Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna

Associate Professor of NamSU.

Ochuboyeva @gmail.com. 99892178415

Abstract: The article is devoted to the strength of the family, which is considered a small unit of society. The President's thoughts on family strength, his quotes about the family being the basis of social development are explained.

It is stated that these thoughts are important for members of society as an initiative aimed at regular legal, economic, social, and spiritual support for the family.

Keywords: family, President, law, economy, society, spirituality, program, goal, education, upbringing, happiness, child, home, value, homeland, nationality, tradition, ancestral heritage, future.

ОСНОВЫ УКРЕПЛЕНИЯ СЕМЬИ

Чубоева Озодахон Кувонбековна

Доцент НамГУ

Ochuboyeva@gmail.com. 99892178415

Аннотация: Статья посвящена силе семьи, которая рассматривается как малая ячейка общества. Разъясняются мысли Президента о силе семьи, его высказывания о семье как основе социального развития.

Утверждается, что эти мысли важны для членов общества как инициатива, направленная на регулярную правовую, экономическую, социальную и духовную поддержку семьи.

Ключевые слова: семья, Президент, закон, экономика, общество, духовность, программа, цель, образование, воспитание, счастье, ребенок, дом, ценность, родина, национальность, традиция, родовое наследие, будущее

KIRISH

Oila mustahkamligi barcha davrlarda insoniyatning asosiy murodi-maqsadi, intilishlarining asosi hisoblangan. Oila muqaddas makon.

Insoniyat tafakkuridagi ilk birlashuvga bo'lgan intilish oilani vujudga keltirgan. Oila kishilik jamiyatining ilk birligi sifatida e'tirof etiladi. Qaysi davrga e'tibor qaratmaylik oilaviy munosabatlar jamiyat ijtimoiy, siyosiy tizimida muhim o'rin tutganligini kuzatamiz. Xatto davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash uchun oilaviy munosabatlar asos bo'lgan. Davlatlar taraqqiyoti uchun oilalar va oilaviy munosabatlar zamin bo'lgan.

O'tgan asrda oilaviy munosabatlar barqarorligi yuqori darajada edi. Zamonaviy texnologiyalar rivojlangan, inson huquqlari yuksalgan hozirgi davrda esa oila mustahkamligi bilan bog'liq muammolar globallashtirila bormoqda. Ayniqsa sharq mamlakatlaridagi oilaviy ajralishlar butun jamiyatni tashvishga solmoqda.

Maqolada davlatimiz rahbarining oilaviy munosabatlarni mustahkamlashdagi ibratli faoliyatlariga e'tibor qaratish bilan oilalar muqaddasligi e'tirofini yoritish maqsad qilindi. Tarixiy shaxslarning oilaviy munosabatlarni mustahkamlashdagi ibratli fikrlari kelajakda oilalar mustahkamligini ta'minlash uchun omil bo'lishi uchun taqdim etilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Oila jamiyatning kichik yacheykasi. Yangi O'zbekistondagi bunyodkor islohotlar jarayonida mamlakatimizning Qomusi yangi taxrirda qabul qilindi. Huquqiy asosimizning 76-moddasida belgilanganidek, oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir. Oilani mustahkam, huquqiy asoslangan tarzda shakllantirish "Oila kodeksi" asosida mustahkamlanadi. Oilalarni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash uchun davlatimiz tomonidan qabul qilingan dasturlar, Prezidentimiz Farmonlari asos bo'lmoqda.

Prezident Sh. Mirziyoyev barcha tadbirlarda, dasturlarda oila mustahkamligi jamiyat taraqqiyoti asosi ekanligini e'tirof etib kelgan. Maqolada Sh. Mirziyoyevni Prezidentlik faoliyatini boshlagan damlardanoq oila mustahkamligi borasidagi ibratli maslahatlarini tahliliy metodi bilan tushuntirish berishga xarakat qilindi. Shuningdek, adabiyot sohasidagi mutafakkirlarning fikrlarini ma'naviy asos sifatida tahlil etildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqotimizning maqsadi oilaning asoslarini huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy asoslarini barcha sohalardagi holati, oilalar mustahkamligini ta'minlashda olib borilayotgan davlat siyosati tahlil etilishi, oilaviy muammolarning bartaraf etilishi bo'yicha munosabatlar yoritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Prezidentlik faoliyati dastlabki kunlaridanoq keng ommaga, "Birinchi vazifa – biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va

o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur¹”-deb ta'kidlaganlar.

Hususan, Prezidentimiz tomonidan oila mustahkamligi, oilalarda tarbiya masalasi, oila tarbiyasida ota-onalar o'rni, oilaning mustahkamligini ta'minlashda mahallaning o'rni, ayniqsa oilaning iqtisodiy jihatdan ta'minlanishi, yolg'iz ayollarga jamiyat va davlat tomonidan beriladigan yordam ko'lamlari va me'yorlarining huquqiy jihatlari borasida doimiy tashabbuslar ko'rsatib kelmoqdalar.

Davlat rahbari tomonidan, oilalar mustahkam bo'lsa haqiqiy tarbiya maskani bo'lishi, barcha insoniylik maqsadlari amalga oshishi va bu borada davlat va jamiyat barcha shart –sharoitlarni yaratishu zarurligiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Prezidentimiz, –“Barchamizga ayonki, yurtimizdagi har qaysi inson, har qaysi oilaning eng ezgu-orzu va maqsadlari, hayotiy manfaatlari avvalambor uning farzandlari timsolida namoyon bo'ladi, ro'yobga chiqadi. Albatta, bu borada yurtimizda ulkan ishlar qilinmoqda va ular amalda o'zining ijobiy natijasini bermoqda², -degan e'tiroflari davlat dasturlarida, olib borilayotgan davlat siyosatida ustuvor yo'nalish etib belgilanmoqda.

Oilani mustahkamlashning iqtisodiy asoslari, mulkiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Bu borada mamlakatimizda olib borilayotga davlat siyosatining asosiy yo'nalishlar konstitutsiyada, qonunlarda mamlakatimizning dasturiy hujjatlarida o'z aksini topmoqda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar ro'yxati shakllantirilishi, ularga davlat tomonidan yashash sharoitlarini yaxshilashga doir ijtimoiy vazifalarni amalga oshirilayotganligi Prezidentimiz belgilab bergan dasturlarni xayotga tadbqiq etilishi yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Extiyojmand oilalar farzandlariga ta'lim, tarbiya berishda davlatimiz ijtimoiy vazifalarini amalga oshirayotganini ko'rsak bo'ladi. Buda ijtimoiy himoyaga muxtoj oilalar farzandlarida ta'lim berishdagi imtiyozlar, magistraturada ta'lim olayotgan xotin-qizlarga davlat granti asosida ta'lim berilayotgani kabi ko'plab asoslarni ko'rsatsak o'rinli bo'ladi.

Oila shunday ulug' maskan va qadriyatlarga boy tarbiya o'chog'i hisoblanadiki, barcha davrlar mutafakkirlari tomonidan e'tirof etilgan, kelajak avlodlarga oila muqaddasligi bitiklarda, asarlarda yozib qoldirilgan.

Jumladan, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari oilaviy janjallar va ajrimlar zaminida muqaddas dinimiz, milliy qadriyatlarimizga zid ishlarimiz yotganligini isbotlab berganlar. Nazarimizda ota-onalar farzandlariga turmush urtoq tanlayotganda ularni istagu-xoxishlariga e'tibor berishi kerak, lekin ularga to'g'ri maslahatlarini ham bermog'i lozim. Qonuniy ravishda nikohdan o'tmasdan faqat sha'riy nikoh bilan yashayotganlar, qonunga xilof tarzda nikoh o'qiyotganlarga nisbatan jazo chorasini kuchaytirish kerakdir. Oilaga darz ketib, oila buzilganda asosan ayollar jabr ko'rmoqda. Ularni uy-joysiz va bolalar bilan yolg'iz qolishi ko'p uchraydi. Shu sababli, nazarimizda rasmiy ravishda nikohdan o'tilayotgan vaqtda yozma nikoh

¹ Mirziyoyev Sh. Tanqidiy taxlil, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016-yil 7-dekabr - Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2017.-

² Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016-yil 7-dekabr - Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2017. – B.13

shartnomasini tuzishni majburiyligi, unda nikoh bekor bo'lganda ayolga katta imtiyozlar berilishini qonunlarimizga kiritish kerak degan fikrni bildirgan edilar¹.

G'arb olamida ham oilaviy munosabatlar tabarruk hisoblangan. Frans Kafkaning "Evrilish" hikoyacini o'qir ekansiz jamiyat, oilaviy munosabatlar, inson tabiati, ruhiyati va insonni yaqinlaridan uzoqlashishi kabi sabablar borasida fikr yurita boshlaysiz. Insonni oilasi va yaqinlari bilan munosabati, ular oldidagi burchi bilan birga ulardan oladigan e'tibori, mexri ham zarur ekanligini anglaysiz. Inson moddiy va ma'naviy jihatdan boy bo'libgina qolmay, ko'rinishda ham go'zal, e'tibor va hurmatiga loyiq bo'lsagina yaqinlari ham o'zlariga yaqin olishlarini his qilasiz...Aks holda eng yaqinlari ham undan uzoqlashadilar, oilalar tanazzulga uchraydi²

Oilalar mustahkamligini ta'minlashda mahallalarning o'rni beqiyos. Mahalla ham oila kabidir. Toshkentdagi mahallalar rivojini kuzatar ekan, "Mahalla ahli bir oila kabi ishonchli, mustahkam rishtalar bilan o'zaro uzviy bog'lanishi kerak, dedi Prezidentimiz³. Buning uchun mahalla faollari, profilaktika inspektori har bir oila ahvolidan, quvonchu tashvishidan doimo xabardor bo'lishi, o'zaro ahillik va hamjihatlik targ'ibotchisiga aylanishi lozim. Shundagina odamlar mahallaga kelib o'z fikrini, taklifini, dardini bimalol aytadi, muammosiga yechim topadi"

Davlatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev har joyda va har damda oila tinchligini bu masala davlat oldidagi asosiy masala ekanligini qayd etadi. Jumladan, 2018-yilning 19—20-yanvar kunlari Surxondaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi ma'ruzada ham, «Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!⁴», — deya ta'kidlagan O'zbekiston Prezidenti.

Har qanday inson uchun muhim va muqaddas qadriyat — bu uning oilasidir. Sog'lom va mustahkam oila — davlat tayanchi va jamiyatning asosiy bo'g'inidir. Kattaga hurmat, kichikka izzat, odamiylik, mehr-oqibat, ona Vatanga muhabbat va sadoqat kabi olijanob fazilatlar avvalo oilada qaror topadi», — dedi davlat rahbari⁵.

Jamiyat rivojlanib, insoniyat uchun maishiy sharoitlar yaxshilanishi ayrim oilalarda sabrlik, tarbiya kabi xisllarni insoniy tuyg'ulardan uzoqlashtirmoqda.

So'nggi davrda oilaviy munosabatlarga nisbatan zamonaiylik tendensiyasi milliy qadriyatlarga mos kelmay qolgan. Ko'plab oilaviy qadriyatlarni eskilik sarqiti, feodalcha qarash kabi turli salbiy atamalarni ishlatish orqali mensimaslik xolatlari kuzatilmoqda. Jumladan, kelinlar qaynona bilan birga yashashni xoxlamasligi, farzand ko'rishni xoxlamasligi, yoki erining qanday bolishi kerakligi haqidagi savollarga

¹ Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф Нашриёт: «Hilol-Nashr» нашриёт-матбааси. 2024yil.

<https://hilolnashr.uz/baxtiyor-oila>

² Frans Kafka. "Evrilish"<https://n.ziyouz.com/>

³ Mirziyoyeva Sh. Mahalla aholisi bir oila kabi ishonchli, mustahkam rishtalar bilan o'zaro uzviy bog'lanishi kerak. 25.03.2017. <https://president.uz/>

⁴ Mirziyoyev Sh. «Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi». 22.01.2018. <https://www.xabar.uz/>.

⁵ Mirziyoyev Sh. Prezident oila ayol va erkakning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligi asosida shakllanishini Konstitutsiyada mustahkamlashni taklif etdi. 2022-yil, 20-iyun, <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/20/family/>

javobida kunlik xarajatini ming aqsh dollarini ko'tarishi kerakligi, unga avtomobil sovg'a qilishi kerakligi haqidagi javoblari bilan bu xolatlarni ko'rishimiz mumkin.

Lekin, nikoh tuzish tantanalaridagi yangicha bazmlar, to'y-xashamlardagi isrofgarchilik kuchaymoqda.

Oilalarning mustahkam tarbiya o'chog'i ekanligi, oila sirini tarqatish oilaviy munosabatlarda parokandalikni vujudga keltirishi borasida olib borayotgan faoliyat natija bermayapti. Ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan xabarlarda oiladagi barcha siru-asrorlar ommaga oshkor etilib, oila qadriyatiga putur yetmoqda.

2025 yilda O'zbekistonda 9 oyda 50 mingdan ortiq er-xotin ajrashish uchun sudga ariza berdi. 2025 yil davomida fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ajrashish bilan bog'liq 70 535 ta ish ko'rilib, 37 544 tasi qanoatlantirildi. 24 244 tasi bo'yicha da'vo talablarini qanoatlantirish rad etilgan, 6 239 tasi ko'rmasdan qoldirilgan va 2 508 ta da'vo bo'yicha ishni yuritish tugatilgan.

2025 yilda O'zbekistonda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 649 652 ta ish ko'rib chiqildi.

Bu turdagi ishlar soni 2024 yilga nisbatan 6 692 taga, qanoatlantirilgan da'vo talablari esa 5327 taga ko'paydi. 2024 yilda nikohdan ajratishga oid 63 843 ta ish ko'rilib, shundan 32 217 tasida da'vo talablari [qanoatlantirilgandi](#). Bu haqda Oliy sud matbuot xizmati [xabar berdi](#)¹.

Xozirda oilalar mustahkamligi uchun olib borilayotgan davlat siyosatini qadrlash uchun barcha vositalarni qo'llash jamiyat kelajagi farovon bo'lishini ta'minlovchi asosdir. Chunki, oilalar butunligini ta'minlash, farzandlarni oila deb atalmish bo'stonda va kelajakka bunyodkorlik ruxida tarbiyalash davlatni qudrati qiladi.

XULOSA

Oila muqaddas insoniy birlik, kichik jamiyatdir. Qadimdan uylarni eshigi past qurilib, eshikdan egilib kirilgan ekan, chunki oilasi muqaddasligi uchun ta'zim bilan kirilgan ekan. Oila qurgan shaxslar oila tabarrukligini saqlagan. Oilani sirlarini ko'chaga chiqarilmagan. Erkak ham, ayol ham, farzandlar ham oilani qadrlagan, kelajak uchun oila tarbiya makoni hisoblangan. Har qanday moddiy qiyinchilik va ma'naviy azoblarga sabr maskani oila hisoblangan. Xozirda ham bu qadriyatlar e'zozlanmoqda.

Vatanimizning ichidagi kichik va farovon makon –oilani asrashimiz shart.

Bu borada huquq normalarini qat'iylashtirish maqsadga muvofiq.

Oila qonunchiligimizda nikoh shartnomasi qoidalari belgilangan bo'lib, oiladagi mulkiy masalalar uchun taraflar xoxishiga ko'ra tuziladi.

Ushbu qoida shartlarini qayta ko'rib chiqish zarur. Nikoh tuzish ixtiyoriylik qoidasi belgilandimi, nikoh shartnomasi shartlarini aniq ko'rsatish kerak. Nikoh shartnomasida kelajakda oila mustahkam bo'lishi uchun har bir taraf muayyan majburiyatlarni zimmasiga olishini belgilash maqsadga muvofiq.

Toki oilalar barqarorligi ta'minlansin

Foydalangan adabiyotlar

¹ <https://kun.uz/news/2026/01/28>

1. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy taxlil, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016-yil 7-dekabr - Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2017.-

2. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016-yil 7-dekabr - Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2017. – B.13

3. Mirziyoyeva Sh. Mahalla aholisi bir oila kabi ishonchli, mustahkam rishtalar bilan o'zaro uzviy bog'lanishi kerak. 25.03.2017. <https://president.uz/>

4. Mirziyoyev Sh. Prezident oila ayol va erkakning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligi asosida shakllanishini Konstitutsiyada mustahkamlashni taklif etdi. 2022-yil, 20-iyun, <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/20/family/>

5. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф Нашриёт: «Hilol-Nashr» нашриёт-матбааси. 2024yil. <https://hilolnashr.uz/baxtiyor-oila>

6. Frans Kafka. "Evrilish"<https://n.ziyouz.com>.

7. <https://kun.uz/news/2026/01/28>

YURISPRUDENSIYA

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ

ТОМ 7, НОМЕР 1

JURISPRUDENCE

VOLUME 7, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000